

## Turk tili va o‘zbek tili grammatikasining farqli va o‘xshash jihatlari

**Akramov Shohruxbek Olimjon o‘g‘li**  
**Sirdaryo viloyati Guliston tumani**  
**Dehqonobod shaharchasi 14-maktab**

**Annotatsiya:** Turklarning eng qadimgi alifbosi, go‘kturk alifbosi sifatida. Bu alifboni hozirda Mo‘g‘ulistonda joylashgan O‘rxon, Yenisev va Talas yodgorliklarida ko‘rishimiz mumkin. Bu yodgorliklar 8-asrda qurilgan. Go‘kturk davlati yo‘q bo‘lib ketganidan so‘ng, uyg‘urlar uyg‘ur nomli yangi alifbo ishlab chiqardilar. Turklar diniy yoki siyosiy sabablarga ko‘ra arab, krill va lotin alifbolarini qabul qilganlar. Turk va o‘zbek tillari turkiy tillar oilasiga mansub ikki tildir. Ikkala til ham umumiy tarixiy va madaniy kelib chiqishi tufayli o‘xshash lingvistik xususiyatlarga ega. Biz maqolada turk va o‘zbek tillari o‘rtasidagi fonetika, lug‘at, grammatika va sintaksis nuqtai nazaridan o‘xshashliklarni o‘rganamiz.

**Kalit so‘zlar:** turk tili (Turk Dili, Tiirkge), hozirgi zamon turk tili, grammatika (gramer), “Til inqilobi” so‘z boyligi (kelime dagarcigi), qadimgi turkiy til (Eski Turkge), o‘rta turkcha (Orta Turkce), yangi turkcha (Yeni Turkge), so‘z yasalishi (kelime yapimi),

Ma‘lumki, o‘zbek tili ham, turk tili ham o‘z asosini qadimgi turkiy tildan oladi. Biroq, ikkovining keyingi takomili o‘zicha kechgan. Hozirgi o‘zbek tili tarixan eski o‘zbek tili (temuriylar zamonida Movarounnahr hamda Xurosonda amal qilgan "chig‘atoy turkiysi" va undan keyingi davrlar yozma tili) asosida paydo bo‘lgan. Turk tili esa Anado‘lida amal qilgan o‘g‘uz guruhiga tayanuvchi usmonli turkchasi asosida shakllangan. O‘zbek va turk tili o‘rtasidagi muhim farq shundaki, o‘zbek adabiy tili turkiy tillarning qarluq (qarluq-chigil) guruhiga mansub, turk adabiy tili esa o‘g‘uz guruhiga kiradi. O‘zbek tilining Xorazm shevalari ham o‘g‘uz lahjasiga mansub. Shuning uchun qarluq, qipchoq lahjasini tashkil qiluvchi o‘zbek shevalari (masalan, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand shevalari) vakillariga qaraganda xorazmlilar turkchani oson tushunadilar.

O‘zbek va turk tili orasidagi bunday farqlarning ba‘zilari tilning ichki taraqqiyoti tufayli keyingi davrlarda yuz bergan bo‘lsa, ayrimlari azaldan mavjud. O‘g‘uzlar va boshqa turkiy lahjalar orasidagi fonetik, morfologik, leksik-semantik va stilistik farqlarni XI asrda yashab o‘tgan ulug‘ tilshunos Mah-mud Koshg‘ariy

o‘zining "Devonu lug‘atit turk" asarida ko‘rsatib o‘tgan edi1 . O‘zbek va turk tillari orasidagi fonetik farqlar, asosan, quyidagilardan iborat: Tilshunosligimizda o‘zbek adabiy tilida olti unli fonema amal qiladi, deb qabul qilingan. Turk adabiy tilida esa unli fonemalar soni sakkizta. Shuni unutmaslik joizki, o‘zbek shevalarida ham unliharflar ko‘p, ba‘zi shevalarda ularning soni o‘n-dan ortiq. Hozirgi o‘zbek alifbosida unliharflar uchun oltita harf qabul qilingani bilan talaffuzda qolgan unliharflarning o‘rni ham sezilib turadi. Masalan, qara, qari, qattiq kabi so‘zlarda [a] tovushi orqa qator unli sifatida talaffuz etiladi: qara, qari, qattiq. Tilak, bilak kabi so‘zlarda esa [a] tovushi yumshoq, old qator unli sifatida (tiläk, biläk) talaffuz etiladi. Yoki qo‘l, qo‘r so‘zlaridagi [o‘] bilan ko‘l, ko‘r so‘zlaridagi [o‘] ham o‘zaro farq qiladi: birinchi juftlikdagisi orqa qator qattiq (qol, qor), keyingi so‘zlardagisi old qator yumshoq (köl, kör) unliharflardir. Lekin ba‘zan bu so‘zlar qo‘shimcha olganda, qo‘shimcha ta’sirida tovushlarning asl xususiyati kuchsizlashadi: qo‘lga, qo‘rga. O‘zbek adabiy tilida singarmonizm qonuni ko‘p o‘rinda buziladi. Turk tilida esa singarmonizm yetakchi o‘rinda. Yana bir jihati, hozirgi o‘zbek imlosida morfologik prinsip bosh o‘ringa olingan, turk imlosida esa fonetik prinsip yetakchidir. Ya’ni, talaffuzda bordi, keldi, aytti, qochti deganimiz bilan o‘zbek tili imlo qoidasiga ko‘ra bu so‘zlardagi qo‘shimchalarni bir ko‘rinishga keltirib, bordi, keldi, aytdi, qochdi shakllarida yozamiz. Turk adabiy tilida esa, eski o‘zbek tilida bo‘lgani singari, talaffuzi qanday bo‘lsa, yozuvda ham shu ko‘rinishda yoziladi.

Qadimgi turkiy tilda	Hozirgi turk adabiy tilida	Hozirgi o‘zbek adabiy tilida
eb~ew	ev [ew]	uy [üy] <sup>2</sup>
edgü	iyi	ezgu [ezgü]
adiğ	ayı	ayiq [ayıq]
eđär	eđer	egar [egär]
quduğ~quđuğ	kuyu	quduq [quduq]
tewey	deve [dewe]	tuya [tüyä]
qon~qoy	koyun	qo‘y [qoy]
qatun	kadın	xotin [xätın]
terin~derin	derin	teran [terän]
öküz	öküz	ho‘kiz [hökiz]
awuç	avuç [awuç]	hovuch [hāwuç]
yağmur	yağmur [ya:mur]	yomg‘ir [yāmğır]
ögrät	öğret [öyret]	o‘rgat [örgät]

Bulardan tashqari har ikki til orasida quyidagi fonetik farqlar ham bor: soʻz boshida jarangsiz [k] undoshi [g] ga aylanadi: koʻk - gök, koʻz - göz, kuz - güz, kun - gün, ketdi - gitti, keldi - geldi; jarangsiz [t] tovushi [d] ga aylanadi: til - dil, togʻ - dağ, tor - dar, tish- diş, tuzdi - düzdü, toʻgʻri - doğru, toʻqqiz - dokuz; soʻz boshidagi [m] oʻrnida turkchada [b] keladi: men - ben, ming - bin, minmoq - binmek. oʻzbek tilidagi sonor [ng] tovushi oʻrnida turk adabiy tilida [n] keladi: koʻngil - gönül, ming - bin, dengiz - deniz, uning - onun, sening - senin, kelsangiz - gelseniz. Biroq, sonor [ng] tovushi ayrim turk shevalarida saqlangan; oʻzbek tilidagi boʻlmoq feʻli turkchada [b] tovushi tushirilib olmaq shaklida talaffuz etiladi; oʻzbek tilida qoʻsh undosh bilan aytiladigan ayrim sonlar turkchada bir undosh bilan keladi: ikki - iki, yetti - yedi, sakkiz - sekiz, toʻqqiz -dokuz, oʻttiz - otuz; turk tilida soʻz oxirida ayrim undoshlar tushib qoladi: kapı (asli qadimgi turkiy tilda: kapık), sariq - sarı, qattiq -katı, achchiq - acı; Har ikkala tilning oʻziga xos xususiyatlarini quyidagi misollarda aniq kuzatish mumkin. Oʻzbek va turk tillari oʻrtasida morfologik farqlar ham bor. Turk tilida singlarmonizm qonuni qatʼiy amal qilgani bois har bir qoʻshimcha oʻzak-negizning tabiatiga bogʻliq holda fonetik variantlardan iborat boʻladi. Masalan, turk tilida koʻplik koʻrsatkichi - lar, -ler; egalik qoʻshimchasi -ım, -im, -um, -üm kabi fonetik variantlarga ega va boshqalar.

Kelishik- lar	Turk adabiy tilida	Oʻzbek adabiy tilida
B.k.	-	-
Q.k.	-in, -ın, -ün, -un; -nin, -nın, -nün, -nun	-ning [-ning, -ning]
T.k.	-i, -ı, -ü, -u; -yi, -yı, -yü, yu; -ni, -nı, -nu, -nü	-ni [-nı, -ni]
J.k.	-e, -a, -ye, -ya; -ne, -na	-ga (-ka, qa) [-gä, -kä, -qa]
Oʻ.-p.k.	-de, -da, -te, -ta	-da [-da, -dä; -ta, -tä]
Ch.k.	-den, -dan, -ten, -tan	-dan [-dan, dän; -tan, tän]

**Turk tili grammatikasi** (Turkcha: *Oʻzbek tilbilgisi*), ushbu maqolada tasvirlanganidek, grammatika standart Turkcha da oʻqigan odamlar tomonidan aytilgan va yozilganidek Turkiya Respublikasi.

Turk tili juda yuqori aglutinativ til, grammatikaning katta qismi bu orqali ifodalanadi qoʻshimchalar qoʻshildi otlar va feʻllar. Bu koʻplab Evropa tillari bilan taqqoslaganda juda muntazamdir. Masalan, *evlardan* “uylardan” deb tahlil qilish

mumkin *ev* “uy”, *-ler* (ko‘plik qo‘shimchasi), *-den* (ablativ ish, “dan” ma’nosini anglatadi); *gidiyorum* “Men boraman” deb *git* “bor”, *-iyor* (hozirgi doimiy zamon), *-um* (1-shaxs birlik = “I”).

Turkchaga xos yana bir xususiyat unli uyg‘unlik. Ko‘pgina qo‘shimchalar ikki yoki to‘rt xil shaklga ega, ularning orasidagi tanlov quyidagiga bog‘liq unli so‘zning ildiz yoki oldingi qo‘shimchani: masalan, ablativ holatini *evler* bu *evlardan* “uylardan”, ammo ablativ holat *boshlar* “boshlar” bu *boshlardan* “boshlardan”.

Fe‘llarning oltitasi bor grammatik shaxslar (uchta birlik va uchta ko‘plik), har xil ovozlari (faol va passiv, refleksiv, o‘zaro va sababchi) va juda ko‘p grammatik zamonlar. Aksariyat Evropa tillarida alohida so‘zlar sifatida ifodalangan “emas”, “qodir”, “kerak” va “agar” kabi ma’nolar odatda turkiy tilda og‘zaki qo‘shimchalar bilan ifodalanadi. Kabi qo‘shni tillar tomonidan ishlatiladigan turkiy tilning o‘ziga xos xususiyati Bolgar va Fors tili bu mukammal zamon qo‘shimchasi (turk tilida) - *miş-*, *-ilgan-*, *-ilgan-*, yoki *-muş-*) ko‘pincha xulosaviy ma’noga ega, masalan. *geliyormusum* “Men kelayotganga o‘xshaydi (ular aytishadi)”.

Fe‘llar qatoriga ega ishtirok etish shakllari, ular turkcha juda ko‘p foydalanadi. Ingliz tilida “kim” yoki “chunki” bilan boshlanadigan gaplar odatda turkiy tilda qatnashgan iboralar yordamida tarjima qilinadi.

Turk tilida fe‘llar odatda oxirida keladi hukm yoki band; sifatlar va egalik otlar ular tasvirlaydigan otdan oldin keladi; va “orqada”, “uchun”, “o‘xshash / o‘xshash” va boshqalar kabi ma’nolar quyidagicha ifodalanadi postpozitsiyalar undan oldin predloqlarni emas, balki otga ergashish. Turk tilida istak maylining ko‘pligi *-alı*, *-eli* qo‘shimchasiga shaxs-son affiksi qo‘shib yasaladi: yapalim (qilaylik), yikayalim (yuvaylik), gidelim (ketaylik, boraylik), gezelim (yuraylik, sayr etaylik). Muhimi shundaki, turk tiliga xos bo‘lgan qo‘shimchalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida saqlanmagan, biroq ular eski o‘zbek tilida (“chig‘atoy turkiysi”da) keng amal qilgan. Ushbu o‘rinda mumtoz shoirlarimizdan Mavlono Lutfiy she‘rlaridan misol keltiraylik: Men köngül berdim yangaqing alına, Bolmadım vāqif bu makr-u alına. Emdi lābud, çara yoq körmäk keräk Har ne tengri salmış olsa alına. Keltirilgan tuyuqning birinchi misrasidagi al - “qizil” ma’nosida (al-ı-na), ikkinchisi “makr, hiyla” (al-ı-na), oxirgi misradagi alın esa “peshona” ma’nosida kelgan (alın-a). Jo‘nalish kelishigi *-na*, *-a* qo‘shimchasi bilan yasalgan. Yana bir bayt: Kel egri olturalı, dağı egri soralı, Ki sarv üçün qāmating ne balā qıldı jānıma. Olturalı, soralı

soʻzlaridagi -alí affiksi istak maʼnosini anglatadi. Shuningdek, bu qoʻshimchalar oʻgʻuz guruhiga kiruvchi hozirgi xorazm shevalarida ham uchraydi. Masalan: alalı (olaylik), oynalı (oʻynaylik), baralı (boraylik), gäláli (kelaylik) kabi. Har ikki tilni qiyoslar ekanmiz, ularning leksik tarkibidagi oʻziga xoslikni ham kuzatamiz. Turk tilining lugʻat tarkibida alın (peshona), kuğu (oqqush), kılavuz (yetakchi), öksüz (yetim) kabi soʻzlar ham bor. Bu soʻzlar qadimgi turkiy tilda keng qoʻllanilgan, biroq hozirgi oʻzbek adabiy tilida saqlanmagan. Xuddi shuning singari, oʻzbek tilidagi ayrim qadimiy soʻzlar turk tilida yoʻq. Ularning oʻrnida boshqa soʻzlarni ishlatadilar. Yangi soʻzlar yasash borasida ham turk tilida farqli jihatlar bor. Masalan, oʻzbek tilidagi oshpaz soʻzi turkiy+forsiy komponentlardan tashkil topgan. Turk tilida buni aşçı yoki ahçı deyiladi. Yoki: oʻzbekcha etikdoʻz, yamoqchi - turkchada ayakkabıcı, dehqon - çiftçi (çiftlik -"ekinzor, dala" soʻzidan) yoki köylü (köy - "qishloq" soʻzidan), vakil -temsilci, sözcü, vekil, elchixona - elçilik, büyükelçilik, koʻzoynak - gözlük va boshqalar. Turk tili lugʻat tarkibida Gʻarbiy Yevropa tillaridan oʻzlashgan soʻzlar ham salmoqli oʻrinni egallaydi. Oʻzbek tiliga bunday soʻzlar rus tili orqali oʻzlashgan, shu bois ular ruscha talaffuzga ega. Turk tiliga esa toʻgʻridan-toʻgʻri oʻsha tillardan oʻtgan va ularning talaffuzi ham oʻziga xos: otel, oto, dans, demokrasi, diplomasi, ekoloji va boshqalar. Turk tilining lugʻat tarkibida keyingi davrlarda yasalgan soʻzlar ham anchagina: uçak (samolyot), durak (bekat), çevirmen (tarjimon), yazım (orfografiya), gelir (foyda, daromad) kabi. Ikkala tilni oʻzaro qiyoslar ekanmiz, ayniqsa, turgʻun iboralarning qurilishi eʼtiborni oʻziga tortadi. Turk tilida oʻzbek tilidagi iboralarga juda yaqin turuvchi iboralar ham koʻp. Gözden kaçırmak, iki ayağını bir pabuca sokmak, işi suya düşmek, kabına sığmamak, saçını süpürge etmek shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, turk tilining oʻz qolipi asosida yasalgan iboralar ham oz emas. Masalan: sakalı ele vermek - oʻz ixtiyorini birovga bermoq, şeytana uymak - shaytonning gapiga kirmoq, ekmeğine yağ sürmek - birovning noniga yogʻ surmoq, göz altına almak - hibsga olmoq, hayal kırıklığına uğramak - xayoldagi narsa chilparchin boʻlmoq, köşeye dönmek - omadi kelib, ishlari yurushib ketmoq, umutsuzluğa kapılmak - umidsizlikka tushmoq, tam üstüne basmak - taxmindagi toʻppa-toʻgʻri chiqmoq. Turkcha iboralardagi bunday farqli jihatlar turkiy tillar uslubiy imkoniyatlarining nihoyatda kengligi, ularning boyligidan dalolat beradi. Muhimi, turk tilini puxta egallash uchun chuqur bilim, lisoniy iqtidor talab etiladi. Har ikki til bir oilaga mansub boʻlishiga qaramay, ularning oʻz xususiyatlari mavjud. Oʻzbekcha fikrlash shakli bilan turkcha gaplashib

ketishning imkoni yo‘q. So‘z qo‘llash, iboralar tanlash, jumlar tuzishda turk tilining o‘z qonunlari amal qiladi. Turk tilini o‘rganish jarayonida bu haqiqatni yodda tutmoq kerak.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo. Abdurasulov. Turkiy tillarning qiyosiy–tarixiy grammatikasi. - Toshkent,2008.
2. Baskakov N.A. Vbenedie v izuchenie tyurkskix yazikov. – Moskva: Nauka, 1968.
3. Koshg‘ariy M. “Devonu lug‘atit turk”. 1 tom, - Toshkent, 1960.
4. Muxtarov J., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. Qo‘llanma. – Toshkent, o‘qituvchi, 1995.
5. Tursunov U., O‘rinboev B., Aliev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995

---

# Research Science and Innovation House